

Qalblarning tuzalishi

Shayx Xolid ibn Abdulloh Muslih

Tarjimon: Abu Ja'far al-Buxoriy

Bismillahir rohmamir rohiym

Barcha hamdlar Allohga xosdir... Biz Undan yordam, nafsimizning yomonligi va amallarimizning shumligidan panoh hamda mag'firat so'raymiz. Alloh hidoyat qilgan odamni adashtiruvchi, adashtirgan odamni hidoyatlovchi yo'qdir. Men yagona, sheriksiz Allohdan boshqa iloh yo'q, Muhammad esa Uning sara bandasi, elchisi, xalili va bandalarining eng yaxshisi ekaniga hamda Uni Qiyomat oldidan hidoyat va haq Din bilan bashoratchi va ogohlantiruvchi qilib yuborganiga, U payg'omni to'kis etkazgani, omonatni ado etgani, Ummatga nasihat qilgani, Alloh yo'lida vafotigacha loyiq bo'lganidek kurashganiga guvohlik beraman. Alloh taolo Unga, Uning oilasi, sahobalari va Qiyomatgacha Uning sunnatiga yaxshilik bilan ergashgan izdoshlariga salavotu salomlar yog'dirsiz.

So'ng ...

Ko'pchilikning hayotiga nazar tashlagan odam ajoyib ishlarni: ularning zohirlarini turli pardoiz anjomlari bilan go'zallashtirish va bezashga harakat qilish bilan birga, botin-ichki dunyolarini bezashdan butunlay g'afatda qolganlarini ko'radi. Qalb va ichki dunyolarni tuzatishdan g'afatda qolingan bir paytda, tashqi ko'rinishni «pardozlash» uchun sarflanayotgan vaqt, mehnat va kuchlar shu darajada ko'pki, buning oqibatida talaygina odamlarning himmati suratining go'zalligini tuzatish va go'zal ko'rinishidan nariga o'tmay qoldi. Ularga Alloh taoloning munofiqlar haqida aytgan tavsiflari o'ta munosibdir: «Qachon siz ularga boqsangiz ularning jismlari (ko'rinishlari, kiygan kiyimlari) sizni hayratga solar, so'zlaganlarida esa so'zlariga (ohangdor, fasohatli bo'lgani uchun berilib) quloq solarsiz. (Lekin ularning dillari imon va yaxshilikdan xoli bo'lgani uchun) ular go'yo (devorga) yo'lab qo'yilgan (chirik) yog'ochlarga o'xshaydilar. Ular (yuraksizliklari sababli) har bir qichqiriq-ovozni ustlariga (tushayotgan biron balo-ofat deb) gumon qiladilar. Ular dushmandirlar. Bas, ulardan ehtiyot bo'ling! Ularni Alloh la'natlagay! Qanday adashmoqdalar-a!» (Munofiquvn: 4).

Bu – ko'rinishlarining jozibali, gaplarining shirali bo'lishi «devorga yo'lab qo'yilgan chirik yog'ochlar» bo'lishdan nariga chiqarmagan qavmning holidir. Bu – izohsiz surat va ma'nosiz jismdir. Bu – mo'min o'zida bo'lishiga norozi bo'lgan pastkash holatdir. Hatto, mo'minning imoni botini-dilini tuzatish,

qalbini poklash va xushbo'ylashishi bilangina komil bo'ladi. Modomiki, dili buzuq va qabohatli bo'lar ekan, tashqi ko'rinishning pardozi va chiroyi bandaga foyda bermaydi. Alloh taolo o'zlarining holatlari va ko'rinishlarining chiroyi aldagan bo'lishiga qaramay, buni oqibatlarining yaxshiligiga dalil qilgan kimsalarga raddiya berib: «Holbuki Biz ulardan ilgari qancha mato' va suratlari chiroyli bo'lgan avlodlarni halok qilgandirmiz!» (Maryam: 74)– dedi va bundan ilgari bulardan ko'ra chiroyli va badavlat avlodlarni halok qilgani, ularning foydalangan narsalari hech narsaga asqotmaganidan xabar berdi. Alloh taolo aytdi: «Axir ular Er yuzida sayru sayohat qilishib, o'zlaridan avvalgi (o'z payg'ambarlarini yolg'onchi qilib iymonsiz ketgan) kimsalarning oqibatlari qanday bo'lganini (ular qanday qismatga yo'liqishganini) ko'rsalar bo'lmaydimi?! Ular (Makka mushriklaridan) ko'ra ko'proq hamda kuch-quvvat va Erdagi osori atiqalari jihatidan zo'rroq edilar. (Ammo) ularga topgan (molu dunyolari ham, kuch-quvvatlari ham) asqotgani yo'q» (G'ofir: 74).

Dil go'zalligi va sog'lom qalb, dunyo va oxiratdagi najot poydevoridir. Alloh taolo aytdi: «Ey Odam bolalari, Biz sizlarga avratlaringizni berkitadigan libosni ham, yasan-tusan (libosini) ham tushirdik. (Hammasidan) yaxshiroq libos taqvo libosidir. Bu — Allohning (fazlu marhamatiga dalolat qiluvchi) oyatlaridandir. Shoyad eslatma (pand-nasihat) olsalar» (A'rof: 26).

Alloh azza va jalla taqvo libosi va ziynati mo'yqalam va boshqa narsalar bilan qilingan tashqi pardozdan ko'ra yaxshiroq ekani, taqvo libosi va taqvo bilan bezanish qalbni tuzatish, poklash va xushbo'ylash bilangina ro'yobga chiqishi, chunki taqvoning joyi – qalb ekanidan darak berdi: «(Ish) shudir. Kim Alloh qonunlarini hurmat qilsa, bas, albatta (bu hurmat) dillarning taqvodorligi sababli bo'lar» (Haj: 32). Bu bilan Alloh taolo diniy ibodat va Allohning shariatlarini e'zozlashni bandaning qalbida taqvoning turishiga dalil qildi.

Imom Muslimning «Sahih»ida Abu Zarr (raziyallohu anhu) rivoyat qiladi: «Rasululloh sollallohu alayhi va sallam Robbisidan shunday rivoyat qildilar: «Bandalarim, sizlarning avvalgiyu oxirgilaringiz, insonu jinlaringiz ichingizdan biringizning taqvoli qalbidek (taqvoli) bo'lsangiz, bu narsa Mening mulkimga biron narsani ziyoda qilmaydi. Bandalarim, sizlarning avvalgiyu oxirgilaringiz, insonu jinlaringiz ichingizdan biringizning fojir qalbidek (fojir) bo'lsangiz, bu narsa Mening mulkimdan biron narsani kamaytirmaydi»» (Imom Muslim, hadis № 6737).

Bu esa, taqvo degani, asosan, qalb taqvosi, fujur esa qalb fisqu-fujuri ekaniga dalolat qilmoqda. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam taqvo va fojirlikni o'z o'rniga – qalbg'a nisbatladilar va quyidagi hadisda buni ochiq-ravshan bayon ham qildilar. Imom Muslim «Sahih»ida Abu Hurayra raziyallohu anhudun ushbu rivoyatini keltirdi: «Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: «Taqvo bu erda! Taqvo bu erda! Taqvo bu erda!»– dedilar va ko'ksilariga ishora qildilar» (Imom Muslim, hadis № 6706). Rasululloh sollallohu alayhi va sallam ko'ksilariga ishora qildilar, chunki, qalb turgan joy – taqvoning joyidir va u erda taqvoning poydevori bordir.

Hurmatli do'stim!

Qalbingizning ishi buyuk va holi ulug' dir. Alloh taolo (ilohiy) kitoblarni qalblarni isloh qilish, payg'ambarlarni esa ularni poklash, tozalash va xushbo'ylash uchun yubordi. Alloh taolo aytdi:

«Ey insonlar, sizlarga Robbingiz tomonidan pand-nasihat, dillaringizdagi buzuq e'tiqodlardan iborat narsalarga shifo va iymon keltirgan zotlarga hidoyat va rahmat (ya'ni, Qur'on) keldi» (Yunus: 57);

«Albatta Alloh mo'minlarga o'zlaridan bo'lgan (ya'ni odam jinsidan bo'lgan), ularga Allohning oyatlarini tilovat qiladigan, (gunohlaridan) poklaydigan hamda ularga Kitob va hikmatni o'rgatadigan payg'ambarni yuborish bilan yashilik qildi» (Oli Imron: 164).

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam olib kelgan eng buyuk narsa – qalblarni isloh qilishdir. Shuning uchun qalblarni isloh qilish va ularni poklash yo'li, Rasululloh sollallohu alayhi va sallam olib kelgan yo'llardan biridir.

Qalb-yurakka shuning uchun ham e'tibor berish zarurki, bu bir parcha latif etni Alloh taolo O'z hikmati va ilmi bilan tanladi va uni O'zining nuri o'rnatadigan joy va hidoyatiga qarorgoh qildi. Alloh subhanahu va taolo O'zining Kitobida bunga quyidagicha zarbulmasal keltirgan:

«Alloh osmonlar va erning nuridir (ya'ni ularning barchasini yoritib, ko'zga ko'rsatib — yo'qdan bor qilib turguvchidir). U zot nurining (mo'min banda qalbidagi) misoli xuddi bir tokcha, uning ustida bir chiroq, bu chiroq bir shisha ichida, u shisha go'yo bir dur yulduzga o'xshaydi. U (chiroq) na sharqiy va na g'arbiy bo'lmagan (balki zaminning qoq markazidagi) muborak zaytun daraxtining (moyidan) yoqiladi. Uning moyi (tiniq, musaffoligidan) garchi unga olov tegmasa-da, (atrofni) yoritib yuborgudek. (Olov tekkach esa) nur

ustiga nur (bo'lad). Alloh O'zining (bu nuriga) O'zi xohlagan kishilarni hidoyat qiladi. Alloh odamlar (ibrat olishlari) uchun (mana shunday) misollar keltiradi. Alloh barcha narsani bilguvchidir» (Nur: 35).

Qalb – ma'rifat o'rnidir, banda u bilan Robbisini, Allohning ismu sifatlarini taniydi. Qalb bilan, Alloh aytganidek, Allohning shar'iy oyatlari haqida tafakkur qiladi: «Axir ular Qur'on haqida fikr yuritmaydilar?! Balki dillarida qulflari bordir, (shuning uchun u dillarga Qur'on nuri etmayotgandir)?!» (Muhammad: 24). Ya'ni, qalblarning tafakkur qilish va o'ylab ko'rishiga to'g'anoq bo'ladigan qulflar bordir.

Shu qalb bilangina ufqlardagi va maxluqotlarda mavjud bo'lgan Allohning koinaviy yaratish mo''jizalarini tafakkur qilinadi. Alloh taolo aytdi: «Axir ular (ya'ni Makka mushrikleri) er yuzida sayr qilib-aylanmaydilar, (ana o'shanda) ular uchun dono dillar, tinglaydigan quloqlar bo'lar edi. Zero, ko'zlar ko'r bo'lmas, balki ko'kraklaridagi ko'ngillar ko'r bo'lar» (Haj: 46).

Alloh subhonahu va taolo o'zlaridagi va ufqlardagi yaratilish va koinaviy mo''jizalardan foydalanishdan maqsad, qalblarning donoligi va ko'r bo'lmasligi ekanini bayon qildi.

Qalbga e'tibor berish yana shuning uchun ham zarurki, u bandaning oxirat safarida minadigan ulovidir. Zero Alloh sari yurish badanlarning emas, qalblarning yurishidir.

U tomon yo'llarni qalbi bilan bosib o'tdi

Ulov taxtiravonida bosib o'tmadi...

Imom Buxoriy (rahimahulloh) «Sahih»ida Anas ibn Molik raziyallohu anhunging hadisini rivoyat qildi: «Biz Rasululloh sollallohu alayhi va sallam bilan birga Tabuk jang(g)idan qaytayotgan edik. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: «Madinada (ba'zi) qavmlar qolgan bo'lsada, bosib o'tganimiz soy va daralarning har birida biz bilan birga edilar. Ular(ning biz bilan birga chiqishlari)ga uzr to'g'anoq bo'ldi»– dedilar. Imom Muslim (rahimahulloh)ning Jobir ibn Abdulloh (raziyallohu anhu)dan qilgan rivoyatida esa: «Ular sizlarga sherik bo'ldilar. Ular(ning biz bilan birga chiqishlari)ga kasallik sabab bo'ldi»– dedilar (Imom Buxoriy, hadis № 4423, Imom Muslim, hadis № 1911).

U sahobalar Madinada biron bir uzr yoki kasallik sababli qolishgan va Rasululloh sollallohu alayhi va sallam bilan birga bu jangga o'zlari chiqa

olmagan bo'lsalarda, qalblari hamda himmatlari bilan birga chiqqan edilar. Ular hijrat diyori – Madinada qolgan bo'lsalar ham, ruhlari bilan Rasululloh sollallohu alayhi va sallam bilan birga edilar. Mana shu – qalb jihodidir. Ibn Qoyyim rahimahulloh aytdi: «Bu – qalb bilan jihod qilishdir. Bu jihodning to'rt darajasi: qalb, til, molu-mulk va tan (jihodi)dan biridir. Hadisda (ham): «Mushriklarga qarshi tillaringiz, qalblaringiz va molu-mulklaringiz bilan jihod qilinglar!»– deyilgan» [(Abu Dovud, hadis № 2504; Nasoiy 6/7, Imom Ahmad 3/124, 153) («Zodul-ma'od» 3/571)].

Biron bir uzr yoki kasallik sababli jangga chiqa olmagan mana bu sahobalar bilan, jangga joni va moli bilan chiqqan sahobalar ajru savobda barobardirlar. Bu – Allohning xohlagan bandasiga beradigan fazlidir. Alloh uchun bellashish, amal garchi biron uzr sababli kechiksa ham, himmat, qat'iyat va chin rag'bat bilan bo'ladi. Ibn Rajab rahimahulloh shunday dedi: «Fazilatlar badan amallarining ko'pligi bilan emas, balki ularning Alloh azza va jallaga xolis bo'lishi hamda sunnatga ergashish orqali to'g'ri bo'lishi bilan, shuningdek, qalblarning ma'rifati va amallari bilan hosil bo'ladi» («al-Mahajja fiy sayrid-duljah», 52).

Shuning uchun ham Bakr ibn Abdulloh Muzaniy (rahimahulloh) Abu Bakr raziyallohu anhunung boshqa sahobalarni ortda qoldirganining sirini bayon qilar ekan: «Abu Bakr ularni (raziyallohu anhum) ko'p ro'za tutish yoki ko'p namoz o'qish bilan emas, balki ko'ksiga o'rnashgan (ixlosi) bilan ortda qoldirdi»– dedi.

Kim ham yana senga o'xshab yura olar,

Shoshmay yurib, marraga ilk kela olar?!

Qadrli do'stim, taqvo, aslida, a'zolar emas, qalb taqvosidir. Bunga Alloh taoloning O'zi uchun bo'g'izlanayotgan qurbonlik va jonliqlar haqida aytgan oyati dalolat qiladi: «Allohga (qilgan qurbonliklaringizning) go'shtlari ham, qonlari ham etmas. Lekin u zotga sizlarning taqvo-ixlosingiz etar» (Haj: 37).

Alloh subhonahu va taolo ta'kidlaganidek, Allohga qalblar taqvosi etib boradi: «(Har bir) xush so'z Unga yuksaladi va yaxshi amalni ham (Alloh O'z dargohiga) ko'taradi» (Fotir: 10).

Barcha amallardan maqsad, qalblarning Allohdan taqvo qilishi-qo'rqishidir. Bu taqvo, qalblarning, hech sheriksiz yagona muhabbat va ulug'lash nuqtai nazaridan, ibodatidir.

Alloh huzurida bo'lar fazilat
Ko'rinsa iymonda asil haqiqat.
Chiroyli bo'lsada amalda surat
Unutma, foydasizdir, doimo albat!

Amallarning bir-biridan ustunligi
Qalbdagi ixlosdan ekanini bil.
Garchi oz amal qilgan bo'lsang ham,
Asosi mustahkam hujjat bilan qil!

Ixlosli, ixlossiz ikkita odam
Amal uchun bellarni mahkam bog'lashsa,
O'rtadagi farqlar aniq ko'rinar,
Odamlar oddiygina nazar tashlashsa.

O'rtalaridagi farq Eru osmondek
Ularni teng ko'rish juda ham dushvor.
Fazilat, ajru savob og'irligida
Ular o'rtasida katta farqlar bor!

Qalbga uni tuzatish, poklash, undagi ofatlarni quvish va uni fazilatlar bilan bezash jihatidan e'tibor qaratish shuning uchun ham zarurki, Alloh taolo bandaning faqat qalbiga boqadi.

Abu Hurayra raziyallohu anhu aytdi: «Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: «Alloh sizlarning jasadlaringiz va suratlaringizga qaramaydi. Balki qalblaringizga qaraydi»– dedilar va ko'ksilariga barmoqlari bilan ishora qildilar» (Imom Muslim, hadis № 2564).

Darhaqiqat, imon va kufr, hidoyat va zalolat, yaxshilik va yomonlikdagi asl-asos – ushbu amallar bandaning qalbida qanday o'rin tutishi bilan belgilanadi. Shuning ham barcha ulamolar kufr so'zni aytishga majburlangan,

biroq qalbi iymon bilan to'lib-toshgan insonning jazolanmasligini ta'kidlaganlar. Zotan, Alloh taolo ham shunday degan: «Kim Allohga iymon keltirganidan keyin (yana qaytib) kofir bo'lsa (Allohning g'azabiga duchor bo'ladi). Lekin kim qalbi iymon bilan orom olgani holda (kufr kalimasini aytishga) majbur qilinsa, (uning iymoniga ziyon etmas). Ammo kimning ko'ngli kufr bilan (ya'ni, dindan chiqib, kofir bo'lish bilan) yoziladigan bo'lsa, bas, unday kimsalarga Alloh tomonidan g'azab va ulug' azob bordir. Bunga (ya'ni, bunday azob-uqubatlarga duchor bo'lishlariga) sabab ular hayoti dunyoni oxiratdan afzal bilganlaridir. Alloh esa kofir qavmni hidoyat qilmas. (Bas, ular kofir bo'lganlari sababli haq yo'lni topa olmay o'lib ketadilar)» (Nahl: 106, 107).

Ushbu oyat, bir talay mufasssirlarning yozishiga qaraganda, Ammor ibn Yosir raziyallohu anhu haqida nozil bo'lgan. U Islom dinini qabul qilgach, mushriklar qattiq qiynoqqa soldilar. Ammor (raziyallohu anhu) ular xohlashgan narsa – Allohga kofir bo'lish va Rasululloh sollallohu alayhi va sallamni haqoratlashni tilga oldi. Ammor (raziyallohu anhu) Rasululloh sollallohu alayhi va sallamga ko'zlaridagi yoshlar bilan buni shikoyat qildi. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam: «Qalbingizning holini qanday ko'rayapsan?»– deb so'radilar. Ammor (raziyallohu anhu): «(Qalbim) iymon bilan xotirjam!»– dedi. Buni eshitgan Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: «Yana qayta (o'sha so'zlarni aytishingni) talab qilsalar, sen ham qaytaraver!»– dedilar (Hokim rivoyat qildi va Imom Buxoriy va Imom Muslim shartlariga ko'ra sahihdir, dedi: 2/357. Imom Zahabiy ham u bilan bir fikrdadir).

Maqtovlarga loyiq va Ulug' Allohga hamdlar bo'lsin.

Qalbga e'tibor berishning zarurligini ta'kidlaydigan narsalardan yana biri shuki, inson qalbi toj kiydirilgan shoh, ergashiladigan rahbardir. Uning tuzalishi, sog'lomligi va ustivorligi barcha narsaning boshi, dunyo va oxiratdagi barcha najotning sababidir. Imom Buxoriy va Imom Muslimlarning «Sahih»larida No'mon ibn Bashir raziyallohu anhudan ushbu rivoyat naql qilingan: «Rasululloh sollallohu alayhi va sallam aytdilar: «Ogoh bo'linglarki, inson tanasida bir parcha go'sht bordir. U tuzalsa – tana yoppasiga tuzaladi, buzilsa tana yoppasiga buziladi. Bilinglarki, u – qalb-yurakdir»– dedilar» (Imom Buxoriy, hadis № 52; Imom Muslim, hadis № 1599).

Bu shuni ochiq-ravshan ko'rsatmoqdaki, qalb ibodati barcha ibodatlar asoslanadigan poydevordir. Tanalarning tuzalishi qalblarning tuzalishiga bog'liqdir. Agar qalblar taqvo va iymon bilan tuzalgudek bo'lsa, tana

yoppasiga itoat va bo'yinsunish bilan isloh bo'ladi. Imom Ahmad (rahimahulloh) Anas raziyallohu anhunging ushbu rivoyatini naql qildi: «Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: «Bandaning iymoni qalbi ustivor bo'lmagunicha ustivor bo'lmaydi»– dedilar» («Musnad», hadis № 13079).

Demak, bandaning iymoni qalbi ustivor bo'lib tuzalmagunicha ustivor bo'lib, tuzalmaydi. Shuning uchun ham, barcha narsani Bilguvchi va barcha narsadan Xabardor bo'lgan Zot, Qiyomat kunidagi najotni qalbning sog'lomligi va pokligiga bog'lab shunday dedi: «U kunda na molu-davlat va na bola-chaqa foyda bermas; Magar Alloh huzuriga toza dil bilan kelgan kishilargagina (foйда berar)» (Shu'aro: 88, 89).

Qalbga e'tibor berishning zarurligini ta'kidlagan narsalardan biri shuki, o'zgaruvchanlik va beqarorlik uning xususiyatlaridan biridir.

Insonni unsiyati uchun deyildi “inson”,

Qalbni beqarorligi chun “qalb” deyildi, inon!

Qalb tez o'zgaruvchan, tez beqaror bo'ladigan narsadir. Imom Ahmad (rahimahulloh) «Musnad»ida Miqdod ibn Asvad raziyallohu anhunging ushbu hadisini rivoyat qildi: «Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: «Odam farzandining qalbi qozonda tinmagan qaynovdan ham tez o'zgaruvchandir»– dedilar («Musnad», hadis № 24317). So'ngra, Miqdod raziyallohu anhu: «Baxtiyor odam – fitnalardan chetdagi odamdır»– deb uch marta takrorladi va bu bilan bu o'zgaruvchanliknig sababi qalbga kelayotgan fitnalar ekaniga ishora qildi. Shuning uchun ham Rasululloh sollallohu alayhi va sallam ko'pincha: «Allohim – qalblarni o'zgartuvchi Zot, qalbimni diningda ustivor qil!»– der edilar.

Imom Ahmad (rahimahulloh)ning Ummu Salama (raziyallohu anho)dan rivoyat qilgan hadisda shunday deyilgan: «Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: ««Allohim – qalblarni o'zgartuvchi Zot, qalbimni diningda ustivor qil!»– deb ko'p duo qilar edilar» («Musnad», hadis № 27054).

Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning duolaridan biri: «Allohim, Men Sendan sog'lom qalb so'rayman!»– edi (Imom Ahmad «Musnad», 4/123, 124; Termiziy «Sunan», hadis № 3407; Nasoiy «Sunan», hadis № 1305).

Bu duolarni biz ham qilishimiz kerak. Chunki, qalbning toyilishi – katta gunoh hamda xatarli oqibat, demakdir. Uning eng ozi – Allohga e'tiborsiz bo'lish, oqibati esa (qalbning) muhrlanishi, qoplanishi va o'lishidir. Alloh taolo

aytdi: «Alloh (haqiqatni) bilmaydigan kimsalarning dillarini ana shunday qoplab-berkitib qo‘yar» (Rum: 59);

«(Ey Muhammad sollallohu alayhi va sallam), havoyi nafsini o‘ziga «iloh» qilib olgan va Alloh uni bilgan holida yo‘ldan ozdirib, quloq va ko‘nglini muhrlab, ko‘z oldiga parda tortib qo‘ygan kimsani ko‘rganmisiz? Bas, uni Alloh (yo‘ldan ozdirgani)dan so‘ng kim ham hidoyat qila olar?! Axir eslatma-ibrat olmaysizlarmi?!» (Josiya: 23).

Bularning barchasi qalbnig o‘rni, maqomi, xatari va uning insonning dunyo va oxirat hayotidagi ta’sirlari borligini bayon qilmoqda.

Ushbu bir parcha go’sht, u haqda fikr yuritish yoki tafakkur qilish uchun to‘xtalishga loyiq emasmi?!

Ushbu bir parcha go’sht, taftish va tekshirish uchun to‘xtalishga loyiq emasmi?!

Ushbu bir parcha go’sht, tekshirish, sinash va imtihon qilish uchun to‘xtalishga loyiq emasmi?!

Ki, bu to‘xtalishlarda ko‘ksingizni qoplagan narsalar ochilsin. Bir kun ilgari qalbingizga joylashgan narsa bilan dilingiz sinaladi, vijdoniningiz yashirgan narsalar yuzaga chiqadi: «(Axir u bilmasmiki, Qiyomat qoyim bo‘lib), qabrlarning ichidagi narsalar (jasadlarga qayta jon ato etilib, tashqariga) chiqarilganida. Va dillardagi sirlar oshkor qilinganida — ana o‘sha Kunda shak-shubhasiz Robbilar ulardan (ya’ni barcha xaloyiqning hayoti dunyoda qilib o‘tgan ishlaridan) ogoh-xabardor-ku!» (Val-odiyot: 9 – 11).

Hurmatli do‘stim, qalbingizni himoya va isloh qilishga, u haqida tinmay, malol olmay yaxshi fikrda bo‘lishga tirishing! Chunki, qalbingiz uzvlaringiz ichida eng xatarlisi, eng ta’sirchani, eng nozigi va islohi qiyin bo‘lganidir.

Unutmangki, qalb islohi va ustivorligi, uni buzadigan kasallik va ofatlardan qutqarish bilangina amalga oshishi mumkin. Bu kasallik va ofatlarning asosi beshta bo‘lib, ular barcha kasallik va va balolarning manbaidir. Ulardan qutulgan odamgina salomat qoladi.

Bulardan qutulsang qutulasan katta balodan,

Yo‘qsa men qutqarolmayman seni hech qachon...

Birinchi ofat: Allohga, katta yoki kichik bo‘lsin, shirk keltirish

Allohga shirk keltirish – zulmi aziymdir. U har buzg'unchilik va qabohatning poydevoridir. Bu bilan qalb zulm qiladi, o'ladi va halokatga uchraydi. Alloh taolo aytdi:

«Alloh kimni hidoyat qilishni istasa uning ko'nglini Islom uchun keng qilib qo'yar. Kimni adashtirishni istasa, uning ko'nglini xuddi osmonga ko'tarilib ketayotgandek, tor va tang qilib qo'yar. Shuningdek, Alloh iymonsiz kimsalarga razolatni (g'olib) qilur» (An'om: 125);

«Iymon keltirgan, o'z iymonlarini zulm (shirk) bilan aralashtirmagan zotlar — ana o'shalar xotirjam bo'lguvchidirlar va o'shalar hidoyat topguvchidirlar» (An'om: 82).

Iymonlarida sodiq, iymonlariga shirk qorishtirmagan mo''minlarga, Robbilaridan to'la xavfsizlik va barkamol hidoyat bordir. Alloh taolo aytdi: «(Tangri ekanligiga) hech qanday hujjat-dalil kelmagan narsani (ya'ni jonsiz butlarni) Allohga sherik qilganlari sababli kofirlarning dillariga qo'rquv solajakmiz» (Oli Imron: 151).

Qalb – sheriksiz, yagona Allohni yaktolash bilangina sog'lom va salohiyatli bo'ladi. Insonda mavjud bo'lgan tavhid sadoqati va e'tiqod sog'lomligiga qarab, uning ko'ngli sog'lom va qalbi solih bo'ladi.

Qalb Yaratguvchisini tanishi, suyushi va Uni yakto deb bilishi uchun, Yaratuvchi unga boshqa barcha narsalardan ko'ra suyukliroq va umidliroq bo'lishi kerak. Qalbning salohiyati uning Allohni naqadar tanishi, suyushi va ulug'lashiga, buzuqligi esa uning ziddiga qarab bo'ladi. Bularsiz, qalb hech qachon solih bo'la olmaydi (Shayhulislom ibn Taymiyya «Majmu'u fatava» 18/163).

Ikkinchi ofat: bid'at va sunnatga xilof ishlar

Bid'atlar, bandani Allohdan uzoq qilib, qalblarni buzadi va ularni poklaydigan va foyda beradigan narsalardan mahrum qiladi. Yo'llarning yaxshirog'i – Muhammad sollallohu alayhi va sallamning hidoyatidir. Ishlarning yomonrog'i esa (din nomi bilan) yangi paydo bo'lganlaridir. (Din nomi bilan) yangi paydo bo'lgan har bir narsa – bid'at, har bir bid'at esa zalolatdir. Qalb bid'atlar bilan to'lsa, uni zulmat qoplaydi va tasavvurlari buziladi. Shunday ekan, u qanday sog'lom bo'lsin?! Shuning uchun ham, salaf solihning bid'atchilar bilan suhbatdosh bo'lishni ta'qiqlagan talaygina osorlari bor. Chunki ular bilan suhbatlashish qalbning buzilishini keltirib chiqaradi.

Fuzayl ibn Iyoz (rahimahulloh): «Bid’atchi bilan bir davrada o’tirgan kishini(ng qalbini) Alloh ko’r qiladi»– dedi. Allohdan bunday holatdan panoh so’raymiz.

Sog’ bo’la turib, yo’ldosh bo’lsang kasalga,

Ko’p vaqt o’tmay o’zing ham aylanasan kasalga.

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam musulmonlar jamoatidan ayrilmaslikni – qalbning eng og’ir kasalliklaridan biri bo’lgan hoyu-havas va gina-kuduratlardan qalbni tozalash sabablaridan biri qilib qo’ydilar. Bu – bid’at, yo zalolat yoki tarqoqlik yoxud qarshi chiqishlik bilan ulardan ayrilmaslik natijasida hosil bo’ladi.

Uchinchi ofat: shahvat-maylliklarga ergashish va gunohlarni qilish.

Shahvat-mayllik va gunohlar, qalbning buzilishi va halokatining katta omillaridan biridir. Alloh taolo maylliklarga bo’lgan muhabbat va ularga ergashishning osorlarini bayon qilar ekan shunday dedi: «(Ey Muhammad sollallohu alayhi va sallam), havoyi nafsini o’ziga «iloh» qilib olgan va Alloh uni bilgan holida yo’ldan ozdirib, quloq va ko’nglini muhrlab, ko’z oldiga parda tortib qo’ygan kimsani ko’rganmisiz? Bas, uni Alloh (yo’ldan ozdirgani)dan so’ng kim hidoyat qila oladi?! Axir eslatma-ibrat olmaysizlarmi?!» (Josiya: 24).

Qarang, shahvatlarga ergashish qalblarning muhrlanishiga qanday sabab bo’libdi! Qalbga urilgan muhr va pardaning ta’siri boshqa a’zolarga qanday o’tib borgani haqida ham o’ylab ko’ring: «... (Alloh) ko’z oldiga parda tortib qo’ygan kimsani ko’rganmisiz? Bas, uni Alloh (yo’ldan ozdirgani)dan so’ng kim hidoyat qila olar?! Axir eslatma-ibrat olmaysizlarmi?!» (Josiya: 23).

Ey qalbining sog’lom bo’lishini umid qilgan odam, shahvatlar bilan qalbni kasallanishidan ehtiyot bo’ling! Chunki qalb kasalliklari halokat va noto’g’ri yo’llarga olib boradi. Alloh taolo aytdi: «Yo’q, (undoq emas)! Balki ularning dillarini o’zlari kasb qilguvchi bo’lgan gunohlari qoplab olgandir!» (Mutoffifiyn: 14).

Ha, gunohlar qalblarni ko’r qiladi. Gunohlardan saqlaning! Gunohlardan saqlaning! Chunki, gunoh qilishning oqibati halokatdir!

Gunohlarni ko’rdim, qalbni o’ldirur,

Uni mudom qilish qalbni xor qilur.

Gunohni tark qilish qalb hayotidir

Gunohga osiy bo'lish, senga yaxshidir.

Imom Muslim (rahimahulloh) Huzayfa (raziyallohu anhu)ning quyidagi rivoyatini naql qildi: «Men Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning shunday deganlarini eshitganman: «Fitnalar qalbga, bo'yra (bo'yraga yonboshlagan odamning badaniga) botganidek, asta-asta kela boshlaydi. Qaysi qalb undan ta'sirlansa, unda qora dog' paydo bo'ladi. Qaysi qalb undan ta'sirlanmasa, unda oppoq dog' paydo bo'ladi. Oxiri ikki qalbga aylanadi: biri silliq oppoq bo'lib, unga Eru Osmoncha haybatli fitnalar ham ta'sir qila olmaydi. Boshqasi esa, qorong'u kechadagi oq chiziqdek, to'ntarib qo'yilgan ko'zadek, na yaxshilikni biladi va na yomonlikni qaytaradi. Faqatgina o'zi to'yingan hoyu-havaslari bilan (band bo'ladi)» (Imom Muslim «Sahih», hadis № 144).

Gunohlar qalbnı har tarafdıan o'rab turadı. Banda nafsu havosiga ergashsa va gunoh qilsa, qilgan har bir gunohiga qarab, qalbini zulmat qoplaydi. U gunoh qilishda davom etib tavba qilmasa, zulmatlar ketma-ket kelib, zo'rayadi. Bu bilan qalbning hayronligi ortadi, baxtiqaroligi barqarorlashadi- da, sezmagıan holatida halokatli erlarga qulaydi. Hatto qalb zulmati kuchaya-kuchaya odamning yuziga ham uradi va uning yuzida har kim ko'ra oladigan qora dog'lar paydo bo'ladi. Ibn Abbos raziyallohu anhu aytdi: «Yaxshilikning qalbdı nuri, yuzda porloqligi, badanda quvvati, rizqda seroblighi, odamlar qalbidı muhabbati bordir. Yomonlikning esa qalbdı zulmati, yuzda qoralighi, badanda zaiflighi va odamlar qalbidı nafrati bordir».

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam hadislarida tilga olgan oqlik va qoralikni bu dunyoda basirat sohibi bo'lgan insonlar ko'ra olsalar, Qiyomat kuni – siru asrorlar va dillarda yashiringan narsalar ochiladigan kunda egalarining yuzlarida ochiq-ravshan ko'rinib turadi. Alloh taolo aytdi: «Qiyomat Kunida Alloh sha'niga yolg'on so'zlagan kimsalarni yuzlari qora holda ko'rasiz. Yo jahannamda mutakabbir kimsalar uchun joy yo'qmi?! Alloh, taqvo qilgan zotlarni (jannatga) erishganlari sababli (jahannam azobidan) qutqaradi va ularga biron yomonlik ham etmas va ular g'amgin ham bo'lmaslar» (Zumar: 60, 61);

«(Qiyomat) Kunida (mo'minlarning) yuzlari oq, (kofirlarning) yuzlari qora bo'ladi. Endi yuzlari qora bo'lgan kimsalarga: «Iymon keltirgandan keyin yana dindın chiqdingizmi? Bas, kofir bo'lganingiz kasofatiga mana bu azobni totib

ko'ringiz», deyiladi. Yuzlari oq bo'lgan zotlar esa Allohning rahmati (jannati)da bo'lib, o'sha joyda abadiy qolajaklar» (Oli Imron: 106, 107).

Gunohlarning barchasi – kattasi va kichigi qalbni buzadi, musaffoligini bulg'aydi. Shuning uchun ham Alloh taolo gunohlarni qilmaslikka amr qilib, shunday dedi: «Gunohning ochig'ini ham, maxfiysini ham tark qilingiz!» (An'om: 120). Bas, har bir musulmon gunohning maxfiysini ham, oshkorasini ham, xususan, qalb gunohlarini qilmasligi farzdir. Chunki bularning qalbg'a o'ta katta salbiy ta'siri bordir.

Qalb gunohlaridan ayrimlari – amallarni bekor qiladigan riyokorlik, amallarni yo'qotadigan manmansirash, yaxshiliklarni ketkazib, yomonliklarni jalb qiladigan kin va hasaddir.

Qalblarni buzib, ularning nurini so'ndiradigan narsalardan biri – harom narsalarga qarashdir. Shuning uchun ham, Alloh taolo mo'min bandalarini ko'zga ehtiyot bo'lishga buyurdi: «(Ey Muhammad sollallohu alayhi va sallam), mo'minlarga ayting, ko'zlarini (nomahram ayollarga tikishdan) to'ssinlar va avratlarini (haromdan) saqlasinlar! Mana shu ular uchun eng toza (yo'ldir). Albatta Alloh ular qilayotgan hunarlardan xabardordir» (Nur: 30).

Alloh taolo sahobalarning Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning muhtarama rafiqalariga xitob qilar ekanlar, nimalarga diqqat qilishlari kerakligini bayon qildi: «Qachon sizlar (payg'ambar ayollaridan biron narsa so'rasangizlar) parda ortida turib so'ranglar! Mana shu sizlarning dillaringizni ham, ularning dillarini ham toza tutguvchiroqdir» (Ahzob: 53).

Ko'zini harom narsalarga boqishdan saqlagan odamga, Alloh taolo, o'tkir ko'z, sog'lom va kuchli qalb badal qilib beradi. Bas, ko'zingizni harom narsalardan saqlang! Ayrim boqishlar borki inson qalbida vasvasalarni keltirib chiqaradi.

Qalblarni buzib, ularning musaffoligini bulg'aydigan narsalardan biri – kuy va qo'shiqlarni tinglashdir.

Qo'shiq – qalbni buzadi. Ibn Mas'ud raziyallohu anhu: «Qo'shiq qalbdan munofiqlikni, xuddi suv sabzavotlarni o'stirganidek, o'stiradi»– dedi.

Qo'shiq va kuy qalbingizning Allohning oyatlari haqida tafakkur qilishini, quloqlaringizning Qur'onni tinglashini, badaningizga esa toat-ibodatlar qilishini qiyinlashtirib qo'yadi. Alloh taolo aytdi: «Odamlar orasida shunday kimsalar ham borki, ular bilimsizlik bilan (o'zgalarni) Allohning yo'lidan

ozdirish uchun va u (yo'lni) masxara qilish uchun behuda so'z(lar)ni sotib olar. Ana o'shalar uchun xor qilguvchi azob bordir» (Luqmon: 6).

Bir qancha salaf ulamolari (oyatdagi) «behuda so'z»ni: «qo'shiq» deya tafsir qildilar. Ko'plab mufasssirlar ham shu fikrdalar. Shuning uchun kuy va qo'shiqlarni tinglashdan saqlaning! Bu narsalarga muhtalo bo'lgan odamlar soni bilan aldanmang! Bunga Alloh taoloning ushbu oyati mos tushadi: «Er yuzidagi kimsalarning juda ko'plariga itoat qiladigan bo'lsangiz, sizni Allohning yo'lidan ozdiradilar» (An'om: 116).

«Allohim, meni xatolarimdan suv, qor va do'llar bilan pokla!»,– deb ko'p duo qiling. Chunki, xatolarning kattasi ham, kichigi ham qalbni tozalashga muhtoj qiladigan dog' va iflosliklarni olib keladi.

To'rtinchi ofat: haqiqatga to'g'anoq va odamlarni adashtiradigan shubhalar.

Shubha – imyon lazzatini ketkazib, shayton vasvasalarini kuchaytiradigan va odamni Qur'on va sunnat bilan foydalanishdan to'sadigan xatarli buzg'unchi kasallikdir. Alloh taolo aytdi: «Endi dillarida haq yo'ldan og'ish bo'lgan kimsalar odamlarni aldab fitnaga solish va o'z havoyi nafslariga muvofiq ta'vil-tafsir qilish uchun Uning mutashobih oyatlariga ergashadilar» (Oli Imron: 7).

Ular na Allohning Kitobidan va na Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning sunnatlaridan foydalana oladilar. Chunki ular Qur'on va sunnatga hidoyat ilinjida emas, balki shubhalantirish va adashtirish nigohi bilan boqadilar. Bu – shubha va shubhalantirganlardan ehtiyot bo'lishni taqozo qiladi. Chunki shubhalar qalbg'a mudom kirar ekan, uni halokat sari eltadi-da, kufr yoki munofiqlik komiga tushiradi.

Shubhalar qalbig'a qildilar hujum,

U, shubhalar o'rtasida qoldi o'rmalab...

Shubhadan va shubhaga soluvchi odamlardan saqlaning! Shubhalarga, shubhaga tushiruvchi odamlarga quloq osmang, ularning kitoblarini o'qimang, majlislarida ishtirok etmang. Ular bilan Alloh taolo Qur'onida bayon qilganidek muomala qiling: «Axir Alloh sizlarga Kitobda: «Qachonki Allohning oyatlari inkor qilinayotganini va masxara qilinayotganini eshitsangizlar, to boshqa gapga o'tmagunlaricha unday kimsalar bilan birga o'tirmanglar», degan so'zlarni nozil qilgan edi-ku?! (Modomiki, ular bilan

o'tirgan ekansiz), demak, sizlar ham shak-shubhasiz ularning o'zisiz. Albatta, Alloh barcha munofiq va kofirlarni jahannamga jamlaguvchidir» (Niso: 140).

Shubhalar yoyayotgan odamlar – Allohning oyatlari haqida botil narsalarni vaysayotgan kimsalardir. Fuzayl ibn Iyoz rahimahulloh: «Sening qalbingni buzadigan odamlar bilan ham, nafs havosiga berilgan odam bilan ham bir davrada o'tirma! Men boshingga Allohning intiqomi tushishidan qo'rqaman!»– dedi. Bu so'zlardan ajablanmasa ham bo'ladi. Chunki, shubha yoyayotan odamlar mo''minni o'z dini, Alloh va Rasuli sollallohu alayhi va sallam bergan xabarlar haqida shubhalantiradilar. Ular Allohning Kitobi va Rasuli sollallohu alayhi va sallamning sunnatiga zid narsalarni buzuq fikrlari, sovuq shubhalari hamda aldamchi gumonlari bilan «bezab ko'rsatish»ga jiddi-jahdlari bilan tirishadilar: «... agar ular Allohga (iymon keltirish va Uning jang qilish haqidagi amriga itoat etishda) sodiq-rostgo'y bo'lganlarida, albatta o'zlari uchun yaxshiroq bo'lar edi» (Muhammad: 21).

Alloh taolo aytdi: «Axir ular Qur'on haqida fikr yuritmaydilar?! Agar u Allohdan boshqa biron tomonidan bo'lsa edi, unda ko'p qarama-qarshiliklarni topgan bo'lar edilar-ku?!» (Niso: 82);

«... Shak-shubhasiz u aziz — qudratli Kitobdir. Unga oldidan ham, ortidan ham (hech qanday) botil-nohaqlik kelmas (ya'ni Qur'oni Karimning hech qaysi tomonidan biron kitob yo hujjat kelib uni botil qila olmas, chunki u) hikmat va hamdu sano egasi tomonidan nozil qilingandir» (Fussilat: 41. 42).

Beshinchi ofat: g'aflat.

G'aflat – inson qalbiga yopirib keladigan va uni foydali narsani olish, zararli narsadan saqlanishdan ko'r qiladigan xatodir. Qabohatlarning aksarining sababchisi – g'aflatdir. Shunday bo'lishiga qaramay, g'aflat, odamlarda ko'p xislatlarning tarqalish boisidir. Alloh taolo aytdi: «Darhaqiqat, ko'p odamlar oyatlarimizdan g'aflatdadirlar» (Yunus: 92).

G'aflat, Alloh nomiga qasamki, Alloh taolo ogohlantirgan va g'aflatli insonlar bilan bir davrada bo'lishni ta'qiqlagan kasallikdir. Alloh taolo aytdi:

«G'ofillardan biri bo'lmang!» (A'rof: 205);

«Va Biz qalbini Bizni zikr qilishdan g'ofil qilib qo'ygan, havoyi-nafsiga ergashgan va qilar ishi isrofgarchilik bo'lgan kimsalarga itoat etmang!» (Kahf: 28).

Bas, g'aflat qalbni uni poklaydigan, o'stiradigan, tuzatadigan, xushbo'ylashtiradigan va qalbga foyda beradigan narsalardan chalg'itadi.

Qadrli do'stim, bular – oldingizda yoyilgan, fikrlaringizni chulg'agan kasallik va ofatlarning ildizlaridir. Allohdan qo'rqing va ulardan saqlanish va qutilish vositalarini topishga shoshiling. Chunki qalblarning salohiyati va ustivorligi ushlar zarur bo'lgan vositalar, qoqish va kirish kerak bo'lgan darvozalar bilan bo'ladi. Natijalar – muqaddima-birlamchi asoslarga bog'liqdir. Ushbu buyuk ofatlardan qutulmoqchi bo'lgan odam najot so'qmoqlaridan yuradi. Axir kema quruqlikda qanday yursin?! «Kim Allohdan qo'rqsa (Alloh) uning ishini oson qiladi» (Taloq: 4). Allohni yodingda tut, Alloh seni unutmaydi! Allohni yodingda tut, Uni oldingda ko'rasan!

Imom Buxoriy (rahimahulloh) «Sahih»ida Anas raziyallohu anhuning ushbu hadisini keltirdi: «Rasululloh sollallohu alayhi va sallam aytdilar: «Alloh taolo aytdi: «Banda Menga bir qarich yaqinlashsa, Men unga bir gaz yaqinlashaman. Banda menga bir gaz yaqinlashsa, Men unga bir quloch yaqinlashaman. Banda menga yurib kelsa, Men unga yugurib boraman»» (Imom Buxoriy «Sahih», hadis № 7405).

Alloh taolo aytdi: «Bizning (yo'limiz)da jihod qilgan — kurashgan zotlarni albatta O'z yo'llarimizga hidoyat qilamiz. Aniqlik, Alloh chiroyli amal qilguvchi zotlar bilan birgadir» (Ankabut: 69).

Bu kasallik va ofatlardan qutulish uchun shoshilingiz! Zero Imom Buxoriy (rahimahulloh) «Sahih»ida naql qilgan hadisda Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: «Alloh biron kasallik nozil qilgan bo'lsa, unga shifo ham nozil qilgandir»– dedilar (Imom Buxoriy «Sahih», hadis № 5678).

Allohga qasamki, diniga e'tibor bergan, g'aflat uyqusidan uyg'onishni xohlagan va Qiyomat kuni (jahannam azobidan) qutulganlar safida bo'lishni orzu qilgan odam, qalb mashaqqati va halokatidan saqlanganidan so'ng, qalbining sog'lom bo'lishi va uni davolash vositalarini o'rganishga qattiq haris bo'ladi. Quyida bu katta ofat va og'ir kasalliklardan qutulishingizda sizga yordamchi bo'ladigan davolarning ayrimlarini aytib o'tmoqchimiz.

Birinchi davo: Aziym va Hakim Qur'on.

Alloh taolo Qur'onni dillardagi (buzuq e'tiqodlardan vujudga kelgan) kasalliklarga shifo, mo''minlar uchun hidoyat va rahmat qilib yubordi. Alloh taolo butun bashariyatga shunday xitob qildi: «Ey insonlar, sizlarga Robbingiz

tomonidan pand-nasihat, dillaringizdagi buzuq e'tiqodlardan iborat narsalarga shifo va imyon keltirgan zotlarga hidoyat va rahmat (ya'ni, Qur'on) keldi. (Ey Muhammad sollallohu alayhi va sallam), ayting: «Allohning fazlu marhamati (ya'ni, Islom) va rahmat-mehribonligi (ya'ni, Qur'on) bilan — mana shu (ne'mat) bilan shod-xurram bo'lsinlar. (Zero), bu ular to'playdigan mol-dunyolaridan yaxshiroqdir»» (Yunus: 57, 58);

«Biz mo'minlar uchun shifo va rahmat bo'lgan Qur'on oyatlarini nozil qilamiz. (Lekin bu oyatlar) zolim-kofir kimsalarga faqat ziyonni ziyoda qiladi» (Isro': 82).

Qur'on – qalbi bo'lgan yoki guvoh bo'la turib quloq osgan insonlar uchun purma'no nasihatdir. U, Allohga qasamki, ko'ngil va qalblardagi ofat va kasalliklar uchun eng foydali davodir. Unda shahvat va shubha kasalliklariga shifo, hamda g'ofillarni uyg'otadigan narsalar bordir.

Ibn Qoyyim rahimahulloh shunday deydi: «Qalb kasalliklarining negizi – shubha va shahvat kasalliklaridir. Qur'on bu ikki turdagi kasalliklar uchun shifodir. Qur'onda haqiqatni botildan ayirib beradigan qat'iy hujjat va aniq dalillar borki, ular bilan shubha kasalliklari barham topadi. Qur'onning shahvat kasalliklariga shifoligi esa, Undagi hikmat, chiroyli nasihat, dunyoga zohid qilish va oxiratga rag'batlantirish borligi uchundir» («Ig'osatul-lahafon» 1/44).

Qalbini tuzatishni xohlagan barcha odam shuni bilishi zarurki, Qur'ondan shifolanishni talab qilish uni tilovat qilish bilangina ro'yobga chiqmaydi. Balki, Qur'on haqida tafakkur qilish, undagi xabarlardan ibratlanish va hukmlariga bo'yinsunish kerak. «Allohim, Qur'onni qalbimiz bahori, dillarimiz shifosi, qayg'u alamlarimizning yo'qolishi qilgin!» (Imom Ahmad «Musnad», hadis № 4406).

Ikkinchi davo: bandaning Allohga bo'lgan muhabbati.

Bandaning Allohga bo'lgan muhabbati – qalbning eng foydali davosidir. Zero, muhabbat – qullikning negizidir. Alloh taolo aytdi: «Odamlar orasida shunday kimsalar borki, ular o'zgalarni Allohga teng bilib, ularni Allohni suygandek sevadilar. Iymonli kishilarning Allohga bo'lgan muhabbatlari qattiqroqdir» (Baqara: 165).

Ibn Qoyyim (rahimahulloh) aytdi:

Qalbning salohiyati, najoti va ne'matlari

Muhabbatni Allohning o'zigagina qilishdadir...

Ya'ni, qalbning salohiyati, najoti va ne'matlari muhabbatni Alloh uchungina xolis qilishdadir. Bas, Allohning muhabbati – qalblar jannati, ozig'i va hayotidir. Allohga qasamki, qalb Allohga bo'lgan muhabbat bilangina najot topadi, tuzaladi, ustivor bo'ladi, yayraydi, lazzatlanadi va xotirjam bo'ladi. Imom Buxoriy va Imom Muslim (rahimahumalloh)lar Anas raziyallohu anhu rivoyat qilgan ushbu hadisni naql qildilar: «Uch (xislat) bor. Ular kimda bo'lsa, u odam iymon halovatini topadi: Alloh va Rasuli unga boshqalardan ko'ra sevimli bo'lsa; birovni Alloh uchungina sevs; Alloh qutqarganidan so'ngra kufrga qaytishni jahannamga tashlanishni yoqtirmagandek yoqtirmasa» (Imom Buxoriy «Sahih» hadis № 21; Imom Muslim «Sahih», hadis № 43).

Bu hadisga chuqurroq nazar solsak, uning negizi Allohga bo'lgan muhabbatga asoslangan ekani ochiq-ravshan bo'ladi. Muhabbat – Islom dinining eng buyuk farzi, eng ko'p asosi va eng mustahkam poydevoridir. Shuning uchun ham Alloh taolo shunday dedi:

«Kim Allohga iymon keltirsa, U zot uning qalbini (to'g'ri yo'lga) hidoyat qiladi. Alloh barcha narsani bilguvchidir» (Tag'obun: 11);

«Ayting (ey Muhammad sollallohu alayhi va sallam): «Agar Allohni sevsangiz, menga ergashinglar. Shunda Alloh sizlarni sevadi va gunohlaringizni mag'firat qiladi. Alloh (gunohlarni) mag'firat qilguvchi, mehribondir»» (Oli Imron: 31).

Sizda qalblar isloh bo'ladigan Allohning muhabbati qancha bo'lsa, Rasululloh sollallohu alayhi va sallamga zohiran va botinan shuncha ergasha olasiz.

Uchinchi davo: Allohning zikri.

Alloh taolo aytdi: «Ogoh bo'linglarki, Allohning zikri bilan qalblar xotirjam bo'ladi» (Ra'd: 28). Imom Buxoriyning «Sahih»ida Abu Muso raziyallohu anhudan ushbu hadis keltirilgan: «Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: «Robbisini zikr qilayotgan odam bilan, Robbisini zikr qilmayotgan odamning misoli o'lik bilan tirikning misoliga o'xshaydi», dedilar» (Imom Buxoriy «Sahih», hadis № 6407).

Qalbning zikrga ehtiyoji, baliqning suvga bo'lgan ehtiyojiga o'xshaydi. Baliqni suvdan chiqarib olsangiz qanday ko'yga tushadi? Qalb ham zikrdan bosh tortsa o'shanday holga tushadi! Allohning zikridan xoli bo'lgan qalb

qorayadi va zulmkorga aylanadi. Alloh taolo aytdi: «Bas dillari Allohni eslashdan qotib qolgan (ya’ni Allohni eslashni tark qilgan) kimsalarga halokat bo’lgay!» (Zumar: 22).

Ibn Qoyyim (rahimahulloh): «Har bir narsaning jilosi bordir. Qalblar jilosi – Allohning zikridir»– dedi («al-Vaabilus-soyyib» 1/56).

Bir kishi Hasan Basriy (rahimahulloh)ga: «Hoy Abu Said, men sizga qalbning qoraligidan shikoyat qilaman»– dedi. Hasan Basriy (rahimahulloh) unga: «Qalbingni zikr bilan yumshat. Qalblar qoraligi Allohning zikridek boshqa narsa bilan yumshamas!»– deb javob berdi.

Shuning uchun ham, Alloh taolo Qur’onning ko’p joyida mo’minlarni Allohni ko’p zikr qilishga buyurdi. Ulardan biri Alloh taoloning: «Ey mo’minlar, Allohni ko’p zikr qilinglar. Va ertayu kech U zotni poklab tasbeh aytinglar!» (Ahzob: 41, 42) oyatlaridir.

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam, Oisha raziyallohu anho xabar berganlaridek, har bir holatlarida Alloh taoloni zikr qilar edilar.

Alloh taolo oqil insonlarni tavsiflar ekan: «Ular turganda ham, o’tirganda ham, yotganda ham Allohni eslaydilar» (Oli Imron: 191)– dedi.

Shuning uchun eng kamida tong va kechki zikrlar, namoz ortidan aytiladigan zikrlar va bundan boshqa sababi va holatlari bayon qilingan zikrlarni aytib yurish kerak.

Alloh ustingizdan barakalar yog’dirsiz, kuchingiz etganicha Allohni ko’p zikr qilishga harakat qiling. Chunki zikr zulmatlardan nurga chiqish, Robbul-olamiynning fazlu marhamatlarini qo’lga kiritish omillaridan biridir. Shuning uchun ham, Alloh taolo O’zini ko’p zikr qilish va kechayu kunduz tasbih aytishga buyurganidan so’ng, bularning mukofotini ham bayon qildi: «U sizlarni (kufr) zulmatlaridan (iymon) nuriga chiqarish uchun sizlarga marhamat ko’rsatadigan zotdir. Uning farishtalari ham (haqlaringizga duo qilurlar). U mo’minlarga mehribon bo’lgan zotdir» (Ahzob: 43).

Zokirlarning mukofoti – zulmatlardan nurga chiqarish, Robbul-olamiynning rahmati va farishtalarning istig’foridir.

To’rtinchi davo: samimiy tavba va ko’p istig’for.

Shartlari komil, chin tavba qalbni jilolaydi, undagi ma’siyat va qabohatlar dog’ini ketkizadi. Mudom gunoh ishlarni qilish esa, qalbni qoraytiradi.

Shuning uchun ham siz osiy kimsaning qalbini sofligi va lazzati bo'lmagan zulmat va shafqatsizlik ichida, balki, Allohga ont ichib aytamanki, azob va baxtiqarolik ichida qolganini ko'rasiz.

Tavba – qalb harakatlaridan biri bo'lib, bu bilan uning tuzalishi va ustivor bo'lishi muqarrardir. Tavbani yangi-yangi va ko'p-ko'p qilish hamda mudom istig'for aytish qalbni o'nglaydigan, poklaydigan va uni solih amallar sari undaydigan omillardandir. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam ham sahih hadislarida: «(Gohida) qalbinga g'aflat bosadi va men bir kunda yuz marta istig'for aytaman»– deganlar (Imom Muslim «Sahih», hadis № 2702, 7033; Imom Ahmad «Musnad», hadis № 18002).

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam bu hadisleri bilan qalblaridagi g'aflatni istig'for bilan yo'qotganlarini aytib o'tdilar. Holbuki, Alloh taolo Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning avvalgiyu oxirgi gunohlarini mag'firat qilgan edi. Shunday ekan, qaddi gunohlar bilan bukilgan, gunoh va ma'siyatlarni tinmay qilgan boshqa insonlarning holi nima bo'lar ekan?! Ular qalblarining buzuqligini tuzatish uchun istig'for aytishga muhtoj emasmilar?!

Allohga qasamki, ha, biz istig'for aytishga o'ta muhtojmiz. Banda gunohlardan tavba qilsa, qalbidagi yaxshi va yomon amallardan vujudga kelgan «qorishmalar» to'kiladi. Qalb kuchi va istaklari solih amallar uchungina faoliyat ko'rsatadi va ichidagi buzuq narsalardan qutuladi. Alloh taolo aytdi: «Avval o'lik (kofir) bo'lgan, so'ngra Biz uni (dinga hidoyat qilish bilan) tiriltirib, unga odamlar orasida o'zi bilan birga olib yuradigan nurni (iymonni) berib qo'yganimiz bir kishi — zulmatlarda qolib ketgan va undan hech chiquvchi bo'lmagan kimsaga o'xshaydimi?!» (An'om: 122).

Bu – Alloh taolo qalbi kufr va jaholat sababli o'lgan, keyin esa Alloh taolo tavbasi bilan hidoyatlab, iymon bilan tiriltirgan hamda uning yog'dusidan foydalanib, odamlar ichida yuradigan odam uchun keltirgan zarbul-masaldir.

Beshinchi davo: Allohga duo qilish va Undan qalbingiz tuzatishi va sizni hidoyat qilishini ko'p so'rashdir.

Duo – qalb islohi uchun ochilgan darvozalarning eng kattalaridan biridir. Alloh taolo aytdi: «Bizning baloyimiz etganda ham tazarru qilmadilarmi?! (Albatta tavba-tazarru qilishlari lozim edi), lekin ularning dillari qotib qolgan va shayton qilib yurgan ishlarini o'zlariga chiroyli ko'rsatib qo'ygandir» (An'om: 43).

Shayxulislom ibn Taymiyya (rahimahulloh) aytdi: «Men eng foydali duo haqida o'ylab, Allohdan Uning roziligiga erishtirishga yordam so'rash ekanini va undan so'ng esa uni Fotiha surasidagi: «Sengagina ibodat qilamiz va Sendagina yordam so'raymiz» (Fotiha: 5) oyatda ekanini ko'rdim»– dedi.

Rasululloh sollallohu alayhi va sallamdek zot Allohdan qalbining tuzalishi, haqiqat va hidoyatda ustivor bo'lishini so'rab ko'p duo qilar edilar. Termiziy (rahimahulloh) sahih sanad bilan Ummu Salama raziyallohu anhoning quyidagi rivoyatini keltirdi: «Rasululloh sollallohu alayhi va sallam ko'pincha: «Ey qalblarni aylantirguvchi Zot, mening qalbimni dinningda ustivor qil!»– deb duo qilar edilar» (Termiziy «Sunan», hadis № 2140).

Imom Muslimning «Sahih»ida Abdulloh ibn Amr ibn Os raziyallohu anhudan shunday rivoyat bor: «Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: «Odam farzandlarining qalblari Rahmonning ikki barmog'i o'rtasida xuddi bir kishining qalbidekdir. U u (qalb)ni xohlagan tarafga buradi»– deb: «Allohim, hoy qalblarni burguvchi Zot! Qalblarimizni toatingga bur»– dedilar» (Imom Muslim «Sahih», hadis № 2654).

Oltinchi davo: oxiratni ko'p eslash.

Oxiratdan g'aflatda bo'lish, barcha yaxshilik va ezgulikka to'g'anoq va barcha fitna va razolatning manbaidir. Shuning uchun ham, Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: «Qabrlarni ziyorat qilinglar! Chunki ular sizga o'limni eslatadi!»– dedilar (Imom Muslim «Sahih», Abu Hurayra raziyallohu anhu rivoyati, hadis № 976).

Ibn Moja (rahimahulloh)ning rivoyatida esa: «... Chunki qabrlar dunyoda zohid qilib, oxiratni eslatadi»– dedilar (Ibn Moja «Sunan», Abdulloh ibn Mas'ud raziyallohu anhu rivoyati, hadis № 1571).

Qalblarga qabr ziyorati, o'lim va oxiratni eslash kabi foydali narsa yo'qdir. Chunki bular shahvatlarni kesadigan va g'aflatlardan uyg'otadigan narsalardir. Shuning uchun Rasululloh sollallohu alayhi va sallam o'limni ko'p eslab yurishga buyurgan edilar.

Ettinchi davo: salaf solih hayotini o'rganish.

Chunki ularning turmush-tarzlari va hikoyalarida oqil insonlar uchun ibrat va namunalar bordir. Alloh taolo aytdi: «(Ey Muhammad sollallohu alayhi va sallam), sizga payg'ambarlarning xabarlaridan dilingizni mustahkam qiladigan qissalarni so'ylab beramiz...» (Hud: 120).

Allohninng nabiylar, rasullar, solihlar, shahidlar va ulardan boshqa avliyo-do'stlarining hikoyalari qalbni ustivor qilib, unga ezgulik va barqarorlikni meros qilib beradi. Ularning hayotiga o'rganish va tushunish nuqtai nazaridan ko'z tashlagan odamning qalbini Alloh jonlantiradi, xulq-atvorini tuzatadi. Xususan, Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning hayotini o'rganish iymonni kuchaytiradigan, qalb va ko'ngillarni tuzatadigan omillarning eng foydalisidir.

Sakkizinchi davo: taqvoli va yaxshi odamlar bilan suhbatdosh bo'lish.

Taqvoli va yaxshi odamlar bilan suhbatdosh bo'lganlar baxtiqaro bo'lmaydi. Alloh taolo payg'ambari Muhammad sollallohu alayhi va sallamga xitob qilib shunday dedi: «Siz o'zingizni ertayu, kech Robbilarining yuzini – roziligini istab, Unga iltijo qiladigan zotlar bilan birga tuting! Ko'zlaringiz hayoti dunyo ziynatlarini ko'zlab, ulardan o'tib (o'zga ahli dunyolarga boqmasin)! Va Biz qalbini Bizni zikr qilishdan g'ofil qilib qo'ygan, havoyi-nafsiga ergashgan va qilar ishi isrof-garchilik bo'lgan kimsalarga itoat etmang!» (Kahf: 28).

Imom Ahmad (rahimahulloh) Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning ushbu hadisini rivoyat qildi: «Kishi – do'stining dinida bo'ladi. Birovingiz kim bilan do'stlashganiga qarasin!» (Imom Ahmad «Musnad», 2/303, 8015).

Molik ibn Dinor (rahimahulloh): «Yaxshi odamlar bilan toshni (elkangda) tashishing, yomon odamlar bilan birga halvo eyishingdan ko'ra yaxshiroqdir»– dedi.

Siz yaxshi odamlar bilan do'stlashishga, siymolariga boqilsa Allohni zikr qilinadigan odamlar bilan suhbatdosh bo'lishga harakat qiling. Chunki ular bilan bir davrada o'tirish – qalblarning hayotidir.

Salaf solihlardan biri: «Do'stlarimdan biri bilan uchrashsam, bu uchrashuv sababli bir necha kun oqil bo'lib yuraman»– dedi.

Boshqasi esa: «Biror do'stimni ko'rsam, u bilan ko'rishish bir oy davomida ishlarimga ta'sir qiladi»– dedi.

Bular – qalb davosining asoslari va tuzalishining omillaridir. Bularni tushunish va ularga amal qilishga haris bo'ling! Chunki, haqiqiy saodatga qalbning sog'lomligi bilangina erishiladi. Zero qalblari toza va ko'ngillari shod insonlarning hayotigina barkamol, baxtiyor, xurram, shirin va ne'matga boydir.

Buyuk Arsh Robbisi, Karim Allohdan bizni huzuriga sog'lom qalb bilan keladiganlar qatorida qilishini so'rayman: «U kunda na molu-davlat va na bola-chaqa foyda bermas; Magar Alloh huzuriga toza dil bilan kelgan kishilargagina (foyda berar)» (Shu'aro: 88, 89).

Buyuk Arsh Robbisi, Karim Allohdan meni va sizlarni shariatida ustivor qilishi, menga va sizlarga xushu'li qalb va solih amallarni nasib etishi, nafsimizga taqvosini berishi, uni poklashini so'rayman. Holbuki U poklovchilarning eng yaxshisidir.

So'nggi duomiz: barcha olamlar Robbisi bo'lgan Allohga hamdu sanolar bo'lsin.

Alloh jannatdan bashoratchi, jahannamdan ogohlantiruvchi qilib yuborilgan Muhammad, Uning oilasi va sahobalariga salavotu salomlar yo'llasin.

Qasim – Unayza shahri